



## **Andijon Viloyatining Ziyoratgohlari**

*Akmalova Feruzaxon Furqat qizi*

*Assistenti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute*

*Abobakirov Nasibullo Nasrullo o'gli*

*Talaba, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute*

**Annotasiya:** Maqolada hozirda Andijon viloyatida mavjud ziyoratgohlar ko'plab sayohatchilar va ziyoratchilar haqida ma'lumotla keltiriladi. Ayniqsa bahor, yoz va kuz mavsumlarida bu joylarda aholi soni yanada ko'payadi. Dam olish, ziyorat va sayohat maqsadida borgan insonlar o'zлari bilan har xil yeguliklar, salqin ichimliklar, meva-sabzavotlar olib borishlai haqida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** ziyoratgohlar, geografik joylashuvi, tabiat, iqlimi, Andijon suv omborlari, viloyat tumanlari, ekologiya, tabiiy yodgorliklari.

Andijon viloyati o'zining tabiat, iqlimi, geografik joylashuvi, ajoyib o'simlik va hayvonot olami bilan O'zbekistonda va Farg'ona vodiysida alohida o'rinda turadi. Shuning uchun ham nafaqat botanik va zoologlar, balki bo'lg'usi ekologlar ham bu xududni har tomonlama o'rganishi, tadqiqi etishi, xudud to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni to'plab keng miqiyosda taqdim etishlari maqsadga muvofiq.

Viloyatning ichki suvlari, daryolari, soylari, kanallari, anhor va mashhur ariqlari ayniqsa alohida e'tiborga ega bo'lib, suv resurslarining keng yoritish, suvdan oqilona foydalanish, uni toza saqlash masalalariga e'tibor berish, xalq xo'jaligida suvning ahamiyati, suv sarfi va sug'oradigan umumiy maydonlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar etishmaydi. Viloyatning asosiy suv zaxirasi hisoblangan Andijon suv omboori viloyat aholisining suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga ega. Ekologik nuqtai nazardan tabiiy landshaftlar katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining eng sharqiy qismida joylashgan, shuning uchun mamlakatning «Sharqiy darvozasi» hisoblanadi. Andijon viloyati Farg'ona mintaqasining sharqiy qismida, asosan, Qoradaryo havzasida, Farg'ona va Oloy tog'lari oralig'ida, "Buyuk ipak yo'li"ning Qoshg'ar O'sh Qo'qon Toshkent yo'nalishida, intensiv sug'orma dehqonchilik va aholisi ko'p va juda zikh yashaydigan mintaqaning markazida joylashgan.

Andijon viloyatini shimol, sharq va janubi-sharqdan Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod va O'sh viloyatlari, janubi-g'arbdan Farg'ona viloyati, shimoli-g'arbdan Namangan viloyatlari chegaralab turadi. Viloyatning eng shimoliy nuqtasi Paxtaobod tumani Madaniyat qishlog'i bo'lib,  $41^{\circ} 03'$  shimoliy kenglik, eng janubiy nuqtasi Marhamat tumani Qorachatir tog'larining shimoliy yonbag'irlarida,  $40^{\circ} 24'$  sharqiy uzoqlik, sharqiy nuqtasi Xonobod shahri yaqinida joylashgan Jiydabuloq qishlog'i ssharqida  $73^{\circ} 10'$  shq.u., eng g'arbiy nuqtasi esa Ulug'nor tumani yangi Baliqchi qishlog'i g'arbida  $71^{\circ} 31'$  shq.u. ga to'g'ri keladi. Viloyat shimoldan janubga 73,6 km, g'arbdan sharqqa 139,4 km ga cho'zilgan.



Andijon viloyati ham manbalarda keltirilgan “Farg‘ona vodiysi O‘rtal Osiyo durdonasi” tarkibiga kirib, o‘zining betakror tabiat, tabiiy yodgorliklari, rekratsiya resurslari bilan mamlakatimizning boshqa hududlaridan ajralib turadi.

Andijon viloyati g‘arbdan sharqqa 140 km, shimo dan janubga 70 km masofaga cho‘zilgan bo‘lib, bu masofalar orasida bir qancha tabiat komplekslari, tabiiy landshaftlar, balandlik mintaqasi bo‘yicha o‘ziga xos bo‘lgan tabiat manzaralari, dam olish va davolanish maskanlari, sharqirab oqayotgan daryo va soyları trassalaridagi bir-biriga o‘xshamaydigan rekratsion resurslari, shifobaxsh, zilol buloqlari, shifobaxsh qumlari bu hududni o‘ziga xosligini belgilaydi. G‘arbdan sharqqa qarab rekratsion resurslarga baho beradigan bo‘lsak, Ulug‘nordagi bepoyon qum barxanlari yozda quyosh vannasini qabul qilib mavjud qumlardan turli xil bod kasalliklarini davolashda ahamiyatli bo‘lsa, Mingbuloq va baliqchilik xo‘jaligi zonasida tashkil etilgan dam olish oromgohlari mahalliy aholining hordiq chiqarishlariga xizmat qiladigan maskanlar hisoblanadi. Undan tashqari Katta Andijon magistral kanali o‘zaniga qurilgan suv taqsilog‘ichlar, to‘g‘onlar atrofidagi go‘zal tabiatli joylar har qanday odamni o‘ziga tortadi. Baliqchi tumani o‘zining Qoradaryo vodiysida, uning trassalarida joylashganligi bilan, ko‘pgina rekratsion resurslarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Qoradaryo vodiysida o‘nlab aholi dam olish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘lim joylar mavjud bo‘lib, yil davomida aholi bu dam oliSh maskanlaridan unumli foydalanib kelmoqda. Tuman markaziga yaqin joyda Baliqchi – Andijon magistral yo‘li bo‘yida joylashgan “Uchbuloq” shifobaxsh zilol suvlari bilan dong taratgan dam olish va davolanish maskani nafaqat tuman aholisi uchun, balki viloyat va hatto respublikamizning boshqa shaharlari va viloyatlari aholisiga ham tanish bo‘lgan betakror xususiyatlarga ega bo‘lgan maskan hisoblanadi. Bu yerda uchta buloq mavjud bo‘lib, har qaysi buloqning suvi o‘ziga xos xususiyatga ega, o‘ta shirin, muzdek, tip-tiniq suvlar har qanday kishini o‘ziga rom etadi. Bu yerda bo‘lgan kishi tanasi rohatlanib, asablari tinchlanib ruhan tetiklashib miriqib dam oladi. Bu yerda yaratilgan infratuzilmalar aholining yaxshi dam olishi uchun qulayliklar yaratadi.

Baliqchi markazidagi madaniyat va istiroxat bog‘i ham tuman aholisining sevimli joylaridan hisoblanib, yozning jazirama kunlarida bu yerda dam olib hordiq chiqaradilar. Tumanning shu eralichek mahallasidag “Tuzloqmozor”dagi ikkita buloq odam tanasidagi yaralarni davolashda o‘ta foydaliligbilan mashhur bo‘lib, suvining tarkibida oltingugurt moddasining borligi uni shifobaxshlik xususiyatini yanada oshiradi. Buloq ikkita bo‘lib, sharqidagisida ayollar va qizlar vanna qabul qilishsa, g‘arbi esa erkaklar uchun mo‘ljallangan. Bu buloqlar dalalarda joylashgan bo‘lishiga qaramay, mahalliy xokimiyat bu yerga keluvchilar uchun deyarli barcha sharoitlarni yaratib qo‘ygan va yil davomida bu shifobaxsh buloqqa tashrif buyuruvchilarning keti uzilmaydi.

Xayrixon Ergasheva mahallasidagi So‘fiota ziyoratgohi ham aholining, ma’lum ma’noda, ruhiy tetiklik olishiga imkoniyat beradigan ziyoratgox sanaladi bu yerda ham obodonlashtirish, ta’mirlash ishlari amalga oshirilib, ziyoratga keluvchilar uchun barcha sharoitlar yaratib qo‘yilgan. Tumanning Chinobod shaharchasiga yaqin joyda joylashgan mahallasidagi shifobaxsh qum avgust oyida bel-oyoq og‘rig‘iga duchor bo‘lgan harakat, tayanch a’zolari og‘riydigan bemorlar uchun davo maskani hisoblanadi. Avgust oyida qum vannasini qabul qilish uchun nafaqat mahalliy, balki viloyatning boshqa hududlaridan ham kishilar kelishib qiyali davolanib ketishadi.

Bo‘z tumanidagi o‘rmon xo‘jaligi viloyatning umumta’lim maktabi o‘quvchilarini dam olish oromgohlari joylashgan so‘lim joylardan hisoblanib, bu o‘rmon xo‘jaligida bir nechta o‘quvchilarga mo‘ljallangan yozgi dam olish lagerlari mavjud, yozda viloyatning turli hududlaridan o‘quvchilar kelishib, dam olishib, yangi o‘quv yiliga sog‘lom va yaxshi kayfiyatda boradilar, o‘quvchilar uchun turli sport o‘yinlari, tadbirlar, sayohatlar uyuştiriladi.

Shahrixon tumani va shahri tarixiy va tabiiy yodgorliklarga boy bo‘lgan joy hisoblanadi. Shahar va tumanning paydo bo‘lishi Qo‘qon xonligi bilan bog‘liqligi tarixdan ma’lum. U esa ko‘plab tarixiy yodgorliklarni vujudga kelishiga, Shahrihonsoyning qurilishiga sabab bo‘lgan.



Shahrixonda XVIII asrga oid Ponsod nomi bilan ataluvchi madrasa – masjid, o'lkashunoslik muzeyi, madaniyat va istiroxat bog'i, pichoqchilik va hunarmandchilik rastalari hamda XX asr boshlarida yashab ijod qilgan shoir Oraziy maqbarasi mavjud. Bu maqbara ta'mirlanib, atroflari obodonlashtirilib sayyoohlar uchun ziyoratgoh joyga aylantirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, Shahrixon hududidan Katta Farg'ona kanali hamda Shahrihonsoyning oqib o'tishi ko'plab rekratsion resurslarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bu suv havzalari bo'yalarida milliy an'analar usulida qurilgan, o'ymakorlik va ganchkorlik san'atini namoyish qiladigan choyxonalar, kafe-restoranlar aholining dam olishi uchun xizmat qiladi. Asaka – Shahrixon eski avtomobil yo'li bo'yida joylashgan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan XVIII asrga oid "Gumbaz" majmuasi sayyoohlarni o'ziga jalg qiluvchi maskanlardan biri hisoblanadi. Shahrixon markazida joylashgan o'lkashunoslik muzeyi o'lka tarixi haqida ma'lumot beruvchi minglab eksponatlarga ega bo'lib, mahalliy turistlarni muntazam qabul qilib kelmoqda, Shaharda joylashgan madaniyat va istirohat bog'i yosh-u keksaning doimiy dam olish maskani hisoblanadi.

Asaka tumani viloyatning eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi, Asakadagi milliy ornament usulida qurilgan mashhur "Cho'ntak" choyxonasi Respublikamizni barcha aholisiga tanish bo'lgan joylardan bo'lib, devzira gurunchda tayyorlangan palov oshi bilan mashhur. Bu maskan Andijonga tashrif buyurgan har qanday mehmonni o'ziga tortadi. Ganch-o'ymakorlik usulida qurilgan bu majmua o'zining joylashgan o'rni, ob-havosi, majmuuning betakrorligi bilan ko'pchilikni o'ziga tortadi va bu Yerda yaratilgan sharoit natijasida choyxona doimiy ravishda odamlar bilan gavjum, Asakadagi madaniyat va istirohat bog'ining pastki qismidan oqib o'tuvchi Shahrihonsoy bo'yida joylashgan "Pistamozor" ziyoratgohi, madaniyat va istirohat bog'i, O'rta Osiyoda yagona engil avtomobil ishlab chiqarish zavodi, Asaka o'lkashunoslik muzeyi va Asaka adir suv ombori atrofidagi mavjud dam olish maskanlari, Shahardagi mehmonxona va restoranlar aholiga madaniyat va maishiy xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Marhamat tumani o'zining geografik joylashgan o'rni, tabiat Asakada ko'plab tabiatning qizikarli ob'ektlari, arxeologik hamda arxitektura yodgorliklari mavjud. Bularning hammasi hududda mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirishga hizmat qiladi., tarixiy yodgorliklari bilan dunyoga mashhur bo'lgan joy hisoblanadi. Bu yerdagi "Mingtepa" arxeologik yodgorligi Farg'ona vodiysi tevaragidagi 70 dan ziyod shaharlarning biri bo'lgan. Bugungi kunda arxeolog olimlarimizning tinimsiz izlanishlari natijasida Mingtepadan ko'plab topilgan va topilayotgan arxeologik topilmalar Mingtepa ochiq osmon ostidagi ochiq muzey bo'lishidan darak beradi va ko'plab chet ellik sayyoxlarni o'ziga jalg etadi. Marhamat tumanidagi yangi hayot qishlog'i yaqinidagi Shimronbuloq, Kelinchak buloq, tumanning janubidan oqib o'tadigan janubiy Farg'ona kanali, Korkidon kanali o'zanidagi sharsharalar, o'zan bo'yidagi oromgoh joylar, g'arbi va shimoliq 'arbidagi Qoraadir, Asakaadir, janubida Qиргизiston Respublikasi hududida joylashgan Ulug'-tog' tog'ining Marhamat hududidagi yonbag'irlaridagi tabiatning manzarali joylari, tog' qoyalaridagi shakllar, tabiiy yodgorliklar bu tumanning o'ziga xos rekratsion resurslarga ega ekanligidan darak beradi. Marhamat tumani adirlarida joylashgan sihatgoh aholining salomatligini tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan maskan hisoblanib bu sihatgohda minglab kishilar o'zlarining salomatligini tiklaydilar.

Buloqboshi tumani viloyatning tabiat go'zal va betakror tumani hisoblanadi. U viloyatning janubiy, janubi-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Shimolidan janubiga qarab Yer yuzasi ko'tarilib boradi, janubida Shirmonbuloq tog'lari, ya'ni Qirtoshtov tog'ining janubi-g'arbiy qismi joylashgan. Tog'ning bu Yerda tog' oldi va tog' landshaftini yuzaga keltirgan. Shuning uchun ham tumanda mikroiqlim yuzaga kelgan bo'lib, o'ziga xos tabiat manzarasini shakllantirgan. Tumanning janubidan oqib o'tuvchi Janubiy Farg'ona kanali Yuqoridagi mikroiqlimni yanada mo'tadillashtirib havoning mayin bo'lishiga ta'sir etadi. Bu yerdagi zilol buloqlar madaniy va tabiiy landshaftlar hududning rekratsion resursini boyitadi va eng avvalo mahalliy aholining va tashqaridan keluvchilarining madaniy dam olib, o'zlarini salomatligini tiklash imkonini beradi.



Shirmonbuloqdagi tabiiy sharoit, mahalliy iqlim, mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan turistik ob‘ektlar, o‘quvchi yoshlarning dam olishi uchun mo‘ljallanga yerlarning mavjudligi, arxeologik yodgorliklar, tabiat yodgorliklari, sharshara, o‘lkashunoslik muzeyi, milliy xalq hunarmandchiligi va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining mavjudligi, jumladan, milliy hunarmandchilik asosida yog‘och o‘ymakorligi va ganch usulida qurilgan va ishlov berilgan choyxona va oshonalarining mavjudligi, ulardagi servis hizmati turizmni rivojlantirish imkonini beradi.

Viloyatimizning Xo‘jaobod tumani ham boshqa tumanlar kabi o‘zining geografik joylashgan o‘rni, tabiatini, u yerda mavjud bo‘lgan tabiiy iqlimi resurslar hududning bir qancha joylari ja ajoyib rekratsion resurslarni vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Tuman janubi-sharqda joylashgan bo‘lsa-da, tog‘ oldi va tog‘li hudud hisoblanadi. Bu yerda havoning harorati, namligi, bosimi va boshqa iqlimi unsurlar boshqa hududlarga nisbatan bir munkha farq qilib, salqin iqlimga xos. Sababi bu hududda yil davomida tushadigan yog‘in miqdori 150-200 mm ga ko‘p. Bu esa havoda namlikning me’yorida ekanligidan darak berib, havoning haroratiga va bosimiga ijobjiy ta’sir etadi. Tumanning shimolidan Shahrihonsoying markazidan janubiy Farg‘ona kanalining oqib o‘tihi, ko‘plab buloqlarning mavjudligi, janubdan Qirtoshtov hamda O‘rta-tov tog‘ining shimoliy qismi o‘rab turganligi, tabiat go‘zal Manak, Karnaychi, Dilkushod, Ordai, Toshota kabi qishloqlar o‘ramida joylashgan past tog‘lar, Dilkushod qishlog‘ining Quvvat Murod mahallasi hududida joylashgan maydoni taxminan 1000 kv metrga teng shifobaxsh qumning mavjudligi, bu Yerdagi sof havosi bilan kishilarning dardlarini davolashda ahamiyatli bo‘lgan dam olish maskanlar va sihatgohlar hududning rekratsion resurslarga boyligidan darak beradi. Bu hududda ham bugungi kunni dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turgan turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, viloyat turistik marshrutining bitta yo‘nalishini ochish mumkin. Xo‘jaobod tumanining janubida joylashgan Imomota ziyoratgohi mahalliy aholi uchun bugungi kunda ham dam olib, hordiq chiqaradigan maskan bo‘lishi bilan birga, “Chil Ustun”, “Chil Mahram” nomlari bilan mashhur bo‘lgan tog‘lar, ulardagi g‘orlar, tog‘ yonbag‘ iridagi Mozor Buva, Ko‘kraklig‘or, Beshungur, Qotronungun, Qopqoqlig‘or kabi tabiat yodgorliklari, Gumrohbuloq, Qozg‘onbuloq, Sossiqbuloq, Achchamozorbuloq, Yilg‘inbuloq kabi shifobaxsh buloqlari bu yerga keluvchi aholi sonining ortib borishiga sabab bo‘ladi.

Qo‘rg‘ontepa tumani, ayniqlsa, uning Sultonobod, Xonobod, Topolina, Platina hududlaridagi tabiiy va tarixiy joylar, Qoradaryo, Andijonsoy, Shahrihonsoy suv oladigan suv taqsimgagich qurilmalari va suv havzalari bo‘yidagi dam olish maskanlari, jumladan, Xonoboddagi Fozilmonota ziyoratgohi, madaniyat va istirohat bog‘i, Sultonoboddagi Bibiseyshanba, Bibichorshanba ziyoratgohlari va u yerdagi zilol suvli shifobaxsh buloqlar kishini o‘ziga rom qiladi.

Qo‘rg‘ontepaning viloyatning sharqida joylashganligi yer yuzasi Andijonga nisbatan 900 metrdan ortiq balandlikda ekani, u joydagi 1350 metr balandlikka ega bo‘lgan Qoratog‘ tog‘ining borligi bu yer iqlimining, tabiatining o‘zgacha bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Xonobod, Sultonobod ziyoratgohlarida yerta bahordan to kech kuzgacha dam oluvchilar va ziyoratchilar arimaydi. Andijon-Xonobod yo‘nalishini ochib, viloyatda milliy turizmni yoki ekoturizmni rivojlantirib, aholiga serviz hizmatini jahon andozalariga mos keladigan darajaga ko‘tarish bu sohani rivojlantirishga omil bo‘ladi.

Izboskan tumani rekreatsion resurslarga boy bo‘lmasa-da u yerda joylashgan tarixiy joylar o‘zlarining shaharsozlik tarixida ne chog‘liq muhimligi bilan ajralib turadi. (eramizdan avvalgi VII-VI-III asrlar). Andijonning shimoli-g‘arbidan 20 kilometr uzoqlikda joylashgan mazkur madaniyatning yaqingacha yagona bo‘lib kelgan Elaton (mahalliy nomlanishi shahri Xoybor) yodgorligi. Yodgorlikning maydoni tashqi devor o‘ragan qismi 200 hektar, ichki devor himoyalangan qismi 20 hektarni tashkil etadi.<sup>1</sup> Bu tarixiy yodgorlik o‘ta muhim ahamiyatga ega

<sup>1</sup> Б.Х.Матбобоев, З.З.Машрапов, Андикон тарихи., Тошкент 2014., 20-21 бетлар.



bo‘lib, zudlik bilan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va qayta tiklashni talab qiladi. Agar bu tarixiy yodgorlik majmuasi qayta tiklansa, inson sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichlarini isbotlovchi yana bitta daliliy ashyoga ega bo‘lib, turizmni rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Izboskanda undan tashqari g.f.j., prof. H.X.Hasanov bergan ma’lumotga asoslanadigan Poytug‘ (bayroq tikilgan joy) azizlari, Poytug‘ning janubida 10 kilometr uzoqlikda joylashgan To‘rtko‘l shahar – qal’asi uning maydoni 9 hektar bo‘lib, rejaga asosan dumaloq shaklga ega. Yodgorlikning shimoli-g‘arbiy burchagida qadimiy ark saqlanib qolgan. Mo‘jazgina qal’a-shaharni baquvvat mudofaa devorlari va kuzatuv minoralari himoya qilib turgan. Mazkur minoralar Eylaton yodgorliklaridan farqli ravishda bir vaqtning o‘zida ham kuzatuv, ham turar joy maskani vazifasini o‘tagan.

To‘rtko‘ltepating mudofaa qo‘rg‘oni bo‘ylab old tomonidan qo‘sishchalar ravishda handaklar qazilganki, bu dushmanlarning devorga yaqinlashishini yanada qiyinlashtirgan. Qal’a-shahar yon-atrofdagi aholiga xavf-xatar tug‘ilgan paytlarda jon saqlash uchun ishonchli istehkomga aylanib, Eylaton o‘rnini egallagan. Mazkur davr qadimgi Farg‘onaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.<sup>2</sup>

Izboskan tumanining Tuyachi qishlog‘ida joylashgan Xo‘jaqambarota mahallasidagi Xo‘jaqambarota yodgorligi, Lo‘g‘umbek qishlog‘i yonidagi Oqmozorota, Lo‘g‘umbek qishlog‘idagi va Poytug‘ shahridagi madaniyat va istirohat bog‘lari tumanda turizmni rivojlantirishga asos bo‘ladigan imkoniyatlarni ochib beradi.

Tumanda bu tarixiy obidalardan tashqari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan dam olish maskanlari mavjud bo‘lib, ular, ayniqsa, yoz oylarida aholining dam oliShiga katta xizmat qiladi. Katta Farg‘ona kanali, To‘rtko‘l (konda) anhori, Qo‘sariq, Qumariq, Xo‘jaqambar ariq kabi suv havzalari hududning iqlimini biroz bo‘lsa-da mo‘‘tadillashtirib rekreatsion resursni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Andijon viloyati g‘arbdan sharqqa 140 km, shimanidan janubga 70 km masofaga cho‘zilgan bo‘lib, bu masofalar orasida bir qancha tabiat komplekslari, tabiiy landshaftlar, balandlik mintaqasi bo‘yicha o‘ziga xos bo‘lgan tabiat manzaralari, dam olish va davolanish maskanlari, sharqirab oqayotgan daryo va soylari trassalaridagi bir-biriga o‘xshamaydigan rekratsion resurslari, shifobaxsh, zilol buloqlari, shifobaxsh qumlari bu hududni o‘ziga xosligini belgilaydi. G‘arbdan sharqqa qarab rekratsion resurslarga baho beradigan bo‘lsak, Ulug‘nordagi bepoyon qum barxanlari yozda quyosh vannasini qabul qilib mavjud qumlardan turli xil bod kasalliklarini davolashda ahamiyatli bo‘lsa, Mingbulloq va baliqchilik xo‘jaligi zonasida tashkil etilgan dam olish oromgohlari mahalliy aholining hordiq chiqarishlariga xizmat qiladigan maskanlar hisoblanadi. Undan tashqari Katta Andijon magistral kanali o‘zaniga qurilgan suv taqsilog‘ichlar, to‘g‘onlar atrofidagi go‘zal tabiatli joylar har qanday odamni o‘ziga tortadi.

Andijon viloyatida mavjud madaniy meros ob‘ektlari tarkibi – arxetektura yodgorliklari 31,8%, arxeologik yodgorliklar 19,0%, monumental san’at ob‘ektlari 33,3%, boshqa diqqatga sazovor joylar esa 15,9% ni tashkil etadi. Jumladan, arxitektura yodgorliklari tumanlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan. Andijon shahrida 21,2%, Andijon tumanida 5,3%, Asakada 6,1%, Baliqchida 9,1%, Bo‘zda 1,5%, Izboskanda 8,3%, Jalolquduqda 3,0%, Marhamatda 3,8%, Oltinko‘lda 2,3%, Paxtaobodda 4,5%, Qo‘rg‘ontepada 4,5%, Ulug‘norda 3,8%, Xonobodda 15,2%, Xo‘jaobodda 3,8%, Shahrixonda 7,6% ni tashkil etadi.

Arxetektura yodgorliklarining asosiy qismi Andijon va Xonobod haharlariga hamda tumanlardan Baliqchi, Izboskan, Shahrixon tumanlariga to‘g‘ri kelar ekan.

<sup>2</sup> Б.Х.Матбобоев, З.З.Машрапов, Андикон тарихи., Тошкент 2014., 21-22 бетлар.



### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdulkasimov A.A. Fiziko-geograficheskiye rayony Ferganskoy kotlovinys //Nauchn.zap.Voronej. Otd.Geogr.obo'.SSSR.-Voronej, 1963.
2. Abdulkasimov A.A. Landshaftno-tipologicheskoye kartirovaniye i fiziko-geograficheskoye rayonirovaniye Ferganskoy kotlovinys: Dis. ... kand.geog.nauk.-Voronej. 1964.
3. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent. O'qituvchi, 1996
4. Oxrana okrujajuşçeu prirodnoy sredy i ispolzovaniye prirodnykh resursov Respublikи Uzbekistana. Doklad. Tashkent, 2006.